

## TYPOLOGY OF PERSONALITY IN ULUGBEK HAMDAM'S LYRICS

Saypidinova Mexmonoy

Bukhara city

35-IDUM teacher of native language and literature

**Annotation:** in this article, the types of personality used in the lyrical works of Ulugbek Hamdam, the specificity of which typology arose through expression using somatisms, and their meaning are revealed.

**Keywords:** Personality, Personality typology, somatism, somatic units, mode of expression, lyricism.

## ULUG'BEK HAMDAM LIRIKASIDA SHAXS TIPOLOGIYASI

Saypidinova Mexmonoy

Buxoro shahar

35-IDUM ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Ulug'bek Hamdamning lirik asarlarida qo'llangan shaxs turlari, uning tipologiyasi somatizmlar yordamida ifodalanish orqali yuzaga kelgan o'ziga xoslik va ularning ma'no mazmuni ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Shaxs, shaxs tipologiyasi, somatizm, somatik birliklar, ifoda usuli, lirika.

Zamonaviy o'zbek she'riyatidagi shaxs obrazlari tiplari, ularni badiiy ifodalash usul va vositalarini jahon adabiyoti tajribasiga tayangan holda aniqlash bugungi kundagi muhim adabiy masalaga aylanmoqda. Shu jumladan, Ulug'bek Hamdam she'riyatida qo'llanilgan shaxs obrazi turlarini aniqlashga alohida to'xtalamiz. An'anaviy tarzida yozilgan "Onamga" she'ri ijodkorning o'z volidayi muhtaramasiga bag'ishlangan bo'lib, unda hayotga mushohada ko'zi bilan qaragan lirik qahramonning onasiga sog'inchi, onalarning umr bo'yi bolam deya yashashi tasvirlanadi. Mazkur she'rda qo'llangan somatizmlar ona shaxsiyatini to'la ochishga xizmat qilgan:

**Iliq bag'ringda** ardoqlab,

Yorug' umidlar ila dunyoga keltirding.

Oq yuvding,

Oq tarading.<sup>1</sup>

Bag'ir somatizmini **"iliq bag'ring"** deya metafora usuli bilan ifoda etish orqali, onaning bag'ri eng maqbul joy ekani, sovuqdan ham, issiqdan ham asraydigan maskan ekannini ta'kidlaydi. Shuning uchun ham "issiq bag'ir", "suvoq bag'ir" emas aynan iliq bag'ring deya ifoda etadi.

...Boqdimu

**Ko'zlarim yana senga tushdi,**

Eshityapsanmi, senga!..

Sen ... o'sha joyda eding,

Meni kuzatgan,

Menga oq yo'l tilagan,

**Oppoq yuragingni yo'limga to'shagan**

Qadim go'shada turarding hanuz...<sup>2</sup>

Bu o'rinda **"ko'zlarim yana senga tushdi"** iborasi orqali har yonga boqsa, boshiga qanday kun kelsa-da, bir onaning o'zgaras ekanligini nazarda tutadi. "Oppoq yurak" somatik birligini ifodalash orqali ona shaxsini qalbi sofliğini ko'rsatadi.

**Sochlaring esa oppoq,**

Xuddi yuragingdek oppoq edi ular -

Yo'l yurib momataloq bo'lgan **oyoqlarimni,**

Tirikchilik g'ubori qo'ngan **yong'oqlarimni,**

Tiriklik ishq qon qilgan **yuraklarini**

Artib olish uchun **boshingda** tutib turgan sochiq edi ular!..<sup>3</sup>

Bu misralar orqali ona shaxsiyatini, ona shaxsini to'laqolni ochib berishda somatizmlardan mohirona foydalanadi. Onaning sochini oqligini shunchaki tasvirlab qo'ymaydi, shunday o'xshatishdan foydalanadiki, dunyo tashvishlaridan charchagan farzandi dilbandiga sochiqdek tutgani, shuning uchun ham volidayi muhtaramasining sochlari oq oralagan, yoki oq emas, oppoq. Ona shaxsini yaratishda Ulug'bek Hamdam **"oppoq soch"**, **"ko'z"**, **"iliq bag'ir"**, **"oppoq yurak"**, **"bosh"** somatizmlaridan foydalanadi. Bundan xulosa shuki, onaning, o'zbek onalarining, barchasi eng mukammal mehr, sadoqat, ishonch ramzi sifatida e'tirof etiladi.

<sup>1</sup> Hamdamov U. Eski dunyo va yangi men: saylanma. – T.: Yangi asr avlodi, 2018. – 20- bet

<sup>2</sup> Hamdamov U. Eski dunyo va yangi men: saylanma. – T.: Yangi asr avlodi, 2018. – 20- bet

<sup>3</sup> Hamdamov U. Eski dunyo va yangi men: saylanma. – T.: Yangi asr avlodi, 2018. – 21- bet

Ulug'bek Hamdamning otaga bag'ishlangan she'rlari ham salmoqli. Ulardan biri "Otamga" she'rida:

Shahardan qayta olmadim,

Dardingizni, ota, olmadim,

**Yuzingizga ayta olmadim -**

Ota, sizni yaxshi ko'raman!<sup>4</sup>

Misralarida **"Yuziga ayta olmaslik"** iborasi zamirida o'zbek otalarining naqadar salobatli, fiqorli ekanligini, bu salobatidan xatto o'zining farzandlari ham tik qarab, dilidagi tuyg'ularini ifoda etishga yurak yutib turganiga ishora qiladi. Boshqa misralarida:

Ulug' tog'ga o'xshaysiz juda,

**To'g'day yurak, tog'dayin jussa...**<sup>5</sup>

Bu o'rinda ota shaxsini ta'rifida **"to'g'day yurak"**, **"tog'dayin jussa"** somatizmini qo'llanilishi orqali otaning "ona" va boshqalardan alohida shaxs ekanini, unga beriladigan ta'riflar ham, o'zgacha somatik birliklar bilan ifoda etilishi ko'rishimiz mumkin. Bu o'rinda o'zbek otasining kuch-quvvati tahsinga sazovor ekanini birgina o'xshatish orqali bera olishi ijodkorning poetik mahoratidan dalolat beradi.

Ulug'bek Hamdamning "Vatandoshlarga" she'ri alohida bir shaxs ta'rifida bo'lmasa ham, umumga, o'zini jamiyatning ongli shaxsi deya yashaydigan yurtdoshlarga chaqiriq tarzida yozilgan:

Yurtda tong otgan-ku, hamma yoq oppoq,

**Ko'zingni och sen ham, yuragingni yoq!...**

Yuqorida qo'llangan **"ko'zingni och"**, **"yuragingni yoq"** frazeologik somatik birliklarning ifodasi orqali ijodkor istiqlolni asrab-avaylash, yuksaltirish uchun doim sergak turish lozimligini ta'kidlaydi.

Ulug'bek Hamdamning farzandlariga bag'ishlab yozilgan, farzandlari tilidan aytilgan she'rlari ham salmoqli. Ular "Farzandlarimga", "O'g'lim Umrbek va qizim Umida tilidan", "O'g'lim Muhammad xotirasiga", "Qizimga", "O'g'lim Umrbekka" va boshqalar. "Farzandalarimga" she'rida:

Qizim, mening oppog'im,

**Yuzlari xo'p do'mbog'im,**

---

<sup>4</sup> Hamdamov U. Eski dunyo va yangi men: saylanma. – T.: Yangi asr avlodi, 2018. – 23- bet

<sup>5</sup> Hamdamov U. Eski dunyo va yangi men: saylanma. – T.: Yangi asr avlodi, 2018. – 23- bet

Sen ko'kdagi oyimsan,  
Marvaridim – munchog'im.  
O'g'lim, umid yulduzim,  
Kecha hamda kunduzim.  
Daraxt bo'lsam men agar,  
Eng baquvvat ildizim.<sup>6</sup>

Mazkur misralarda ham ko'rishimiz mumkinki, qiz bola shaxsi va o'g'il bola shaxsini ifoda etishdagi somatik birliklar, o'xshatmalar bir-biridan farq qiladi. Ayol kishi tabiatan nozik hilqat, go'zal ta'riflansa, er kishi kuch-qudratli, baquvvat ta'riflanadi. **“Yuzlari xo'p do'mbog'im”, “Eng baquvvat ildizim”** misralari fikrimizni dalillaydi.

Shoshmasdan kuting siz ham,

**Ko'zingiz bo'lmasin hech nam.**

Ertaga katta bo'lib,  
Safga kiramiz biz ham.<sup>7</sup>

“O'glim Umrbek va qizim Umida tilidan” she'ridan olingan yuqoridagi misralarda qo'llangan **“Ko'zingiz bo'lmasin hech nam”** frezologik birlik, hech qachon dard ko'rmaslik, doim yaxshi hayot kechirish ma'nolarida qo'llaniladi. Mazkur misralarda ham farzandlar tilidan otasining har vaqt to'kis hayot kechirishini istagan farzandlar tilidan aytiladi.

“Qizimga” va “O'g'lim Umrbekka” she'rlarida qiz bola shaxsi va o'g'il bola shaxsining ta'rifiga nazar tashlasak, ijodkor qiziga nisbatan **“Sochlaringni o'raman”, “Boshingni baland tutgil”, “O'lib etsam, quyosh bo'p, Boshginangda turaman”, “Kecha-kunduz qon bo'lib, Tomirinda sillaman”**<sup>8</sup> kabi somatik birliklarni ishlatgan holda, o'g'liga bag'ishlangan she'rida:

Mening ko'zlarimsan – mendan keyin ham

Sening qolganing bu – mening qolganim!<sup>9</sup>

Kabi somatizmlardan foydalanadi. Bu o'rinda “mening ko'zlarimsan” birligida ko'z so'zi an'anaviy tarzda somatik obraz darajasiga ko'tariladi. Ota shaxsi qiz farzandiniga o'zgacha

<sup>6</sup> Hamdamov U. Eski dunyo va yangi men: saylanma. – T.: Yangi asr avlodi, 2018. – 51- bet

<sup>7</sup> Hamdamov U. Eski dunyo va yangi men: saylanma. – T.: Yangi asr avlodi, 2018. – 56- bet

<sup>8</sup> Hamdamov U. Eski dunyo va yangi men: saylanma. – T.: Yangi asr avlodi, 2018. – 60- bet

<sup>9</sup> Hamdamov U. Eski dunyo va yangi men: saylanma. – T.: Yangi asr avlodi, 2018. – 81- bet

mehr, nazar bilan, doim hayotgan ko'z yumgan vaqtida ham g'amxo'rlik qilishini ta'kidsa, o'g'il esa otaning hayotligi-yu vafotidan keyin ham tirgak bo'lishini ifoda etadi. ko'ramizki, shoir Ulug'bek Hamdam, ayol shaxsi va er kishi shaxsini ta'rifida turli o'ziga xos somatizmlardan, somatik obrazlardan foydalanadi. Bu esa ularning shaxsiyatini yoritishga katta xizmat qiladi.

Ijodkorning "Ukalarimga" she'rida quyidagi somatik iboradan foydalanadi:

Abdumannob, Karimjon,

Boshingiz bo'lsin omon.

**Qo'lni qo'lga bersak biz**

Yengilmaymiz hech qachon!<sup>10</sup>

"qo'lni qo'lga bermiq" iborasi lug'atda ahl bo'lmoq, inoq bo'lmoq ma'nosida ishlatiladi. Bu o'rinda ham aka shaxsi ukalarini inoqlikka chorlash uchun foydalanadi.

**Yurakni so'zlarga ko'chiring,**

G'or bo'lsa,

ayamang

o'chiring.

Zo'r bo'lsa, tuzatib-kuzatib,

Ellardan ellarga uchiring.

**Yurakni so'zlarga ko'chiring!<sup>11</sup>**

Ushbu misralar "Yosh ijodkorlarga" she'ridan olingan bo'lib, ijodkor shaxsini, endigina shoirlik ostonasiga qadam qo'ygan izdoshlariga tilak tarzda yangraydi. Bunda qo'llangan "yurakni so'zlarga ko'chiring" misrasida yurak somatik birligi metonimik ma'no ko'chishi usulida qo'llangan bo'lib, yurakdagi so'zlarni, haqiqatlarni yozishni nazarda tutadi.

Ulug'bek Hamdamning yana ko'plab, muharrir, o'zbek ziyolilari, olomon, amaldori, mansab egalari shaxsiyatini yoritgan she'rlari ham talaygina. Jumladan, "Muharrirga" she'rida:

Axir, sening **bo'g'zing** ila men

Hayqirolmam, tushun, ey mardim.

O'z holimga qo'ygil endi sen,

<sup>10</sup> Hamdamov U. Eski dunyo va yangi men: saylanma. – T.: Yangi asr avlodi, 2018. – 65- bet

<sup>11</sup> Hamdamov U. Eski dunyo va yangi men: saylanma. – T.: Yangi asr avlodi, 2018. – 80- bet

Aytib ketay dildagi dardim.

Bo'giz – tomoqning qizilo'ngach va kekirdak boshlanadigan yeri; tomoq hisoblanadi. Ko'pincha insonlarga nisbatan tomoq shaklida qo'llanadi. Bu o'rinda bo'g'iz somatizmi ovoz, so'z ma'nolarida qo'llanilgan. Ijodkor muharrir shaxsini, shoir shaxsiga nisbatan erkin bo'lishini qalamga oladi.

Aytishuv shaklida yozilgan “O'zbek ziyolilariga!” she'ri shoir Amir Xudoyberdi bilan aytishuv tarzda yozilgan. Unda ikki shoirning yurt kishilarini sergaklik, ilm-u ziyoga chorlashda ziyoli shaxsini o'rni alohida ekanligini ta'kidlovchi mushohadalari beriladi:

Mahshardagi uyg'onish, demak,

O'zni do'zax o'tiga otmak.

Ziyoliman deganga harom

Ko'zni yumib dunyodan o'tmak!<sup>12</sup>

Bu o'rinda “ko'zni yumib”, iborasi ko'rib ko'rmaslikka olish, bilib bilmaslikdek ko'rinish ma'nosida qo'llaniladi. Ziyoli shaxsi jamiyatdagi o'zgarishlarga befarq bo'lmasligi, millat g'ami ila yashashi lozimligi ifodalanadi.

Qizg'anmang bu dunyolarni, dunyo bizdan qolgusi,

Eldan bir-bir terib olgan tillo sizdan qolgusi.<sup>13</sup>

deya ijodkor haddini bilmagan amaldorlarni tanqid osiga oladi. Mazkur misralarda amaldorlar shaxsini, hammasi ham emas, ogohlikka chorlaydi. Shuningdek:

Mansabga tegdimi sullohning keti,

Eshak terisidek qotarkan beti.<sup>14</sup>

deya yana bir bir amaldor shaxs vijdonli, insonlar, yurti qayg'usi, kelajagi bilan yashaydigan kishilarni amal ustiga ketishi lozimligini ifoda etadi. Bu o'rinda sulloh – “arabcha” o'taketgan xira, surbet, shilqim ma'nosini bildiradi.

Ijodkor ahli yo'qki, muhabbat haqida qalam tebratmagan. Ulug'bek Hamdam ijodida ham ishq-muhabbat mavzu alohida o'rin tutadi. Uning ko'plab she'rlari, asarlari muhabbat mavzusida.

Asli keldim bu dunyoga suymoq uchun,

<sup>12</sup> Hamdamov U. Eski dunyo va yangi men: saylanma. – T.: Yangi asr avlodi, 2018. – 83- bet

<sup>13</sup> Hamdamov U. Eski dunyo va yangi men: saylanma. – T.: Yangi asr avlodi, 2018. – 88- bet

<sup>14</sup> Hamdamov U. Eski dunyo va yangi men: saylanma. – T.: Yangi asr avlodi, 2018. – 89- bet

Avval suyib, keyin faqat kuymoq uchun,

Yuragimda yaratganni tuymoq uchun...

Mening sevgim,

Sen dilingni ochgan kuning

Ko'zlaringni qarlarida ko'rdim Uni!..<sup>15</sup>

“Mening sevgim” she’ridan olingan mazkur misralar, shoirning mumtoz shoirlar kabi yor shaxsini ifodasi orqali Yaratganni tarannum etadi. bu o’rinda “ko’z” somatizimi an’anaviyligini ko’rishimiz mumkin. Ko’z taavvufiy adabiyotda komil inson ramzi bo’lib keladi. Bundan ko’ramizki, shoir Yaratganni aynan yorning o’zlarida ko’rishi bejiz emas.

Xulosa o’rnida aytishimiz mumkinki, shoir Ulug’bek Hamdam she’rlarida shaxs obrazini ifodasida, uning shaxsiyatini ochib berishda somatizmlardan mohirona foydalanadi. Shuningdek, xoh ona, xoh ota, farzandalar, aka-uka, yurtdoshlar, ziyoli-yu amaldor, yor shaxsini ifodasida o’ziga xosliklarga erishadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Hamdamov U. Eski dunyo va yangi men: saylanma. – T.: Yangi asr avlodi, 2018
2. O’zbek tilining izohli lug’ati. 5 jildlik. “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”, - davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
3. Hamdamov U. Atirgul. – Toshkent: 2006.
4. Hamdamov U. Yangi o’zbek she’riyati. – T.: Adib, 2012. – 304 b.
5. Gadoyeva M. I. Ingliz va o’zbek tillarida somatizmlarning semantik-pragmatik tadqiqi
6. Ярмагов И.Т. Типология фольклоризмов в современной узбекской литературе (60-е и начало 80-х годов): Автореф. на соиск. канд. фил. наук. – Т., 1985. – 24 с.

---

<sup>15</sup> Hamdamov U. Eski dunyo va yangi men: saylanma. – T.: Yangi asr avlodi, 2018. – 96- bet